**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G. Rixsiyeva
_______________

2021 yil “28” 08

# XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARIDA INVESTITSIYALAR

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 | Iqtisod |
| **Mutaxassislik:** | 70411902 | Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati) |

**Toshkent-2021**

| | |
|---|---|
| **7.** | O'quv dasturi "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizmi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" avgust dagi "1" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" avgust dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>Saidrasulova X.B.-Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Vahobov A.V. - O'zMU, "Makroiqtisodiyot" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.<br>Abdullayev Z. – BMA "Moliya" kafedrasi dosenti, iqtisod fanlari nomzodi |

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirishi lozim.

6. **Asosiy adabiyotlar**


1. B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitisiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.Iqtisod Moliya.2014. 608-b.
2. S.Valdez, Ph.Molyneux. Global financial markets. China.2013.-285p.
3. Международные валютно-кредитные отношения. Под.общ.редак.Е.А.Звоновой.М.2014. 687-с.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. www.president.uz/uz/
8. Международные валютно-кредитные отношения. Под.общ.редак.Л.Н.Красавиной.М.2014. 543-с.
9. Международный финансовый рынок. Под.общ.редак. В.А. Слепова, Е.А.Звоновой.М.2007. 543-с.

**Axborot manbalari**

10. www.viperson.ru
11. www.economics.ru
12. www.ved.ru
13. www.ser.uz
14. www.uza.uz




| Fan/modul kodi | O‘quv yii | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| XSI102 | 2021-2022 | 1 | 2 | |
| Fan/modul turi | Ta’lim turi | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | O‘zbek/rus | | 2 | |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | Xorijiy Sharq mamlakatlarida investitisiyalar | 30 | 30 | 60 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrantlarga xorijiy investisiyalar va investisiya loyihalarining nazariy va uslubiy asoslari hamda xorijiy Sharq mamlakatlarining investision siyosati hamda yirik moliya markazlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bilimlarni berish.

Fanning vazifasi –xorijiy investitsiyalarniing nazariy asoslarini, xorijiy sharq mamlakatlari iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarniing tovar va jug‘rofiy strukturasini hamda jahondagi yirik moliya markazlarini tahlil qilish va o‘rganishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1- mavzu. Xorijiy investitsiyalarning nazariy asoslari.**

Xorijiy investitsiylarning mohiyati va ularning tasnifi. Jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ro‘li. Xorijiy investitsiyalarning iqtisoidiyot tarmoqlari va mamlakatlar bo‘yicha global miqyosda taqsimlanishi. Investitsion bozorning yetakchi mamlakatlari. Investitsion jarayonlar va ularning ishtirokchilari. Zamonaviy investitsion jarayonlar. Mamlakatlarni ivestitsion bozordagi o‘rni.

**2-mavzu. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati.**

Xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solinishining turlari va usullari. Foyda –investitsiya manbai sifatida. Iqtisodiyotning davlat va tijorat sektorlarida xorijiy investitisiyalrni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Xorijiy investitsiyalarni davlatlararo tartibga solinishi. Xorijiy investitsiylatni tartibga solishning me’yoriy-xuquqiy asoslari. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning usullari va chora-tadbirlari.

**3-mavzu. Investitsion loyihalar.**

Investitsion loyihalarning turlai va davomylik sikli. Investitsion loyihalarni ishlab chiqish. Investitsion loyihalarni moliyalash turlari. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi. Investitsion loyihalar samaradorligini

noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida baholash. Investitsion portfellarning shakllanishi.

**4-mavzu. Xorijiy sharq mamlakatlarida investitsiya muhiti va siyosati.**

Investitsiya muhiti. Investitsion siyosat. Fors ko'rfazi mamlkatalarida investitsiya muhiti. Janubiy Osiyo mamlakakatlarining investitsion siyosati. Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari investitsion siyosatining asosiy yo'nalishlari. Yaponiya iqtisodiyotining investitsiya muhiti. Yaponiyaning investitsion siyosati va uning asosiy yo'nalishlari. Japoniyani investision faoliyatini korinishi va shakllari. Yaponiyani investision faoliyatini jahon iqtisodiyotiga tasiri. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning Japoniya davlati tomonidan tartibga solinishi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning davlat tomonidan tartibga solinishi.

**5-mavzu. Jahonning yirik moliyaviy markazlari.**

Tokio moliyaviy markazi.Gonkong –yetakchi jahon moliyaviy markazi. Frankfurt va London moliya markazlari.Pekin va Shanxay yirik xalqaro moliyaviy markazlari sifatida. Dubay- Fors ko'rfazining yirik moliyaviy bozori. Singapur moliyaviy bozorining o'ziga xos xususiyatlari. Mumbay moliyaviy markazi- zamonaviy xalqaro markaz sifatida.

**6-mavzu. Alternativ moliyalash manbalari.**

Moliyalashtirishning islomiy shakli. Rivojlanish banklari tomonidan moliyalstirish. Davlatlararo moliyaviy yordamlar. Lizing. Faktoring. Kroudfanding.

**7-mavzu. O'zbekistoning investitsiya siyosati va uning asosiy hamkorlari.**

O'zbekistonda investitsiya muhiti va siyosati. O'zbekistonning Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan investitsion hamkorligi. Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi investitsiya sohasidagi aloqalar. Koreya Respublikasi va O'zbeksiton o'rtasidagi hamkorlik aloqalarida investitsiyalarning o'rni. Xitoy-O'zbekistonning zamonaviy yirik investitsion hamkori sifatida. O'zbekistonda investitsiya muhitini taxlili va mavjud muammolar. Davlat tomonidan investision muxitni yahshilash va investision siyosatini yaxshilash choralari. O'zbekistonning investitsion hamkorligi kengaytiris va bu soxada qabul qilingan meyoriy hujjatlar va konsepsiyalar. O'zbekistoning investitsion jozibadorligini oshirishda jahon amaliyoti.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xorijiy investisiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakatlar bo'yicha global miqyosda taqsimlanishi.



2. Xorijiy investisiyalarni tartibga solishning me'yoriy-xuquqiy asoslari.
3. Investision loyihalarning iqtisodiy samaradorligi.
4. Osiyo Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari investision siyosatining asosiy yo'nalishlari.
5. Frankfurt va London moliya markazlari.
6. Rivojlanish banklari tomonidan moliyalashtirish.
7. Xitoy- O'zbekistonning zamonaviy yirik investision hamkori sifatida.
8. O'zbekistoning investision jozibadorligini oshirish yo'nalishlari.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xorijiy investitsiyalarning asosiy maqsadi va vazifalari.
2. To'gridan-to'gri xorijiy investitsiyalarning Janubi -sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati.
3. Portfel investitsiyalarning Fors ko'rfazi mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati
4. Xorijiy sharq mamlakatlaridagi investitsion loyihalar
5. Yaponiyadagi investitsion muhitning o'ziga xos xususiyatlari
6. Koreya Respublikasida investitsiya siyosati
7. Xorijiy sharq mamlakatlaridagi yirik moliyaviy markazlar
8. BAAda islomiy moliyalstirish yo'nalishlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

| | |
|---|---|
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**<br>Magistr bilishi kerak:<br>• xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning asosiy usullari va yo'nalishlari bo'yicha ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• xorijiy sharq mamlakatlaridagi xorijiy investitsiyalar xaqida kompleks tasavvurga ega bo'ishi hamda xorijiy sharq mamlakatlaridagi investitsiylar bilan ishlash bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan tahliliy ***ko'nikmalarga ega bo'lishi***;<br>• investitsion loyihalar samaradorligini baholash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar; |